

Toshkent viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli **1,8** barobarga (14114,2 mlrd so'mga) ko'paydi, shuningdek, 2026- yil yanvar-iyun oylarida 2025-yilga nisbatan **4828,9** mlrd so'mga kam investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi




So'nggi besh yil ichida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 14 114,2 mlrd so'mga oshgani kuzatilgan bo'lsa, joriy davrda o'sish sur'ati esa 86,0 % ni tashkil qildi. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2026- yil yanvar-iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 32 587,7 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2025- yilga nisbatan 86,0 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2025-y.	2026-y.
Jami	32587,7	86,0	100,0	100,0
Markazlashgan investitsiyalar	2103,3	85,7	6,5	6,5
Respublika budjeti	1222,3	150,1	2,2	3,8
Suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	53,8	19,6	0,7	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	9,6	-	-	-
Kafolat ostida xorijiy kreditlar	817,6	59,9	3,6	2,5
Markazlashmagan investitsiyalar	30484,4	86,0	93,5	93,5
Korxona o'z mablag'i	5124,2	79,8	16,9	15,7
Bank krediti (<i>boshqa qarz mablag'larini qo'shgan holda</i>)	372,1	140,1	0,70	1,1
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	22517,7	85,5	69,5	69,1
<i>shundan:</i>				
<i>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>14257,3</i>	<i>96,0</i>	<i>39,2</i>	<i>43,8</i>
<i>Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>8260,4</i>	<i>71,9</i>	<i>30,3</i>	<i>25,4</i>
Aholi mablag'i	2470,4	101,5	6,4	7,6

2026- yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 2 103,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilga nisbatan 85,7 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 6,5 % ga yetdi.

**Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi % da.**



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so' m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta' minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg' armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg' armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag' lari
Toshkent viloyati	32 587,7	3,8	15,7	7,6	69,1	0,2	0,03	1,1
shaharlar:								
Nurafshon	1 146,8	14,4	29,3	4,2	51,1	0,0	0,0	0,4
Olmaliq	2 653,3	2,2	8,8	2,1	86,6	0,2	0,0	0,0
Angren	1 071,9	2,2	31,0	5,5	59,8	0,1	0,0	0,2
Bekobod	573,3	3,0	5,8	2,4	88,7	0,0	0,0	0,1
Ohangaron	661,5	2,5	14,6	7,2	73,1	0,0	0,0	2,6
Chirchiq	2 362,2	1,3	20,6	3,0	73,8	0,0	0,0	1,3
Yangiyo'l	955,1	3,0	3,5	4,8	85,6	0,0	0,0	0,0
tumanlar:								
Oqqo'rg'on	840,5	0,9	1,0	6,6	89,8	0,0	0,0	1,5
Ohangaron	2 940,8	3,6	25,8	2,2	66,2	0,4	0,0	1,7
Bekobod	485,0	14,9	3,7	7,6	72,3	0,7	0,0	0,7
Bo'stonliq	2 837,3	2,5	10,7	6,4	69,7	0,0	0,0	1,1
Bo'ka	209,5	6,5	40,7	24,6	24,2	0,0	0,0	4,0
Quyi Chirchiq	1 069,2	1,6	6,9	7,1	84,3	0,0	0,0	0,0
Zangiota	2 741,5	1,8	5,7	7,5	77,1	0,5	0,4	0,0
Yuqori Chirchiq	4 243,6	2,9	28,9	5,4	62,7	0,0	0,0	0,0
Qibray	1 197,4	6,8	19,3	23,4	39,7	0,4	0,0	5,0
Parkent	1 170,4	10,9	2,2	10,0	74,7	0,0	0,0	0,0
Piskent	894,3	1,3	9,5	7,9	78,7	0,4	0,0	2,2
O'rta Chirchiq	1 134,9	11,9	13,5	15,1	58,6	0,0	0,0	0,8

	Jami investitsiyalar, mlrd so' m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta' minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg' armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg' armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag' lari
Chinoz	757,5	0,9	2,5	7,2	87,5	0,8	0,0	0,6
Yangiyo'l	939,9	1,5	4,1	15,0	46,2	0,1	0,0	11,6
Toshkent	1 701,8	2,9	22,8	22,9	51,2	0,0	0,0	0,2

II. Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 11 093,5 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 34,0 foizi o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	Umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2025-y.	2026-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	32587,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3720,3	10,7	11,4
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2488,2	19,2	7,6
Ishlab chiqaradigan sanoat	11093,5	23,6	34,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1215,1	15,1	3,7
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1511,9	2,1	4,6
Qurilish	3288,7	9,6	10,1
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	746,8	1,9	2,3
Tashish va saqlash	1860,2	3,9	5,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	660,1	0,8	2,0
Axborot va aloqa	35,1	0,7	0,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	24,5	0,0	0,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	40,6	0,6	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	624,1	0,6	1,9
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	1018,1	2,7	3,1
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	284	1,6	0,9
Ta'lim	453	0,4	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	120,3	0,6	0,4
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	615,4	0,3	1,9
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	2787,8	5,6	8,6

III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


2026- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 1921,8 mln dollar yoki 23 335,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	14257,3	817,6	8260,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	533,4	7,6	52,3
Olmaliq	448,6	0,0	1848,7
Angren	619,6	12,8	21,8
Bekobod	508,4	0,0	0,0
Ohangaron	483,6	0,0	0,0
Chirchiq	1106,7	0,0	636,6
Yangiyo'l	647,8	29,6	169,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	755,2	0,0	0,0
Ohangaron	1360,2	2,5	587,0
Bekobod	288	0,0	62,9
Bo'stonliq	247,3	271,7	1729,5

Bo'ka	50,7	0,0	0,0
Quyi Chirchiq	644,9	0,0	257,0
Zangiota	2109	191,3	3,9
Yuqori Chirchiq	1288,4	5,9	1370,5
Qibray	429	65,0	46,9
Parkent	312,4	25,3	561,4
Piskent	509,7	0,0	194,2
O'rta Chirchiq	613,8	0,6	50,8
Chinoz	519,5	3,5	143,3
Yangiyo'l	417,9	201,8	16,1
Toshkent	363,2	0,0	508,3

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



IV. Toshkent viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2026-yil yanvar-iyun oylarida jami 984,1 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
Toshkent viloyati	984,1	792,6	-	-
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	18,7	-	-	-
Olmalik	22,7	-	-	-
Angren	22,4	-	-	-
Bekobod	5,2	-	-	-
Ohangaron	18,4	-	-	-
Chirchiq	27,0	-	-	-
Yangiyo'l	18,0	-	-	-
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	21,5	15,7	-	-
Ohangaron	19,8	19,8	-	-
Bekobod	11,0	10,7	-	-
Bo'stonliq	70,3	60,8	-	-
Bo'ka	17,5	8,5	-	-
Quyi Chirchiq	32,0	28,5	-	-
Zangiota	84,4	84,2	-	-
Yuqori Chirchiq	94,8	94,8	-	-
Qibray	114,7	111,8	-	-
Parkent	47,4	30,6	-	-
Piskent	28,4	27,2	-	-
O'rta Chirchiq	68,7	68,3	-	-
Chinoz	19,2	12,8	-	-
Yangiyo'l	60,0	58,9	-	-
Toshkent	162,0	160,0	-	-

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek, moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va xayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sischilarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek, intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	X. Choriyev 71 203-45-00 (4520)	Toshkent shahar, Mirobod tumani, Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy